



Vaziyat

2023 йил
13 апрель
№ 15 (904)



Ўзбекистон Республикаси Фавқулодда вазиятлар вазирлиги нашри

Газета 2004 йил 7 майдан чиқа бошлаган

БОШ ҚОМУС ЭЪТИРОФИ

ФВВ Академиясида Республика Маънавият ва маърифат маркази билан ҳамкорликда “Халқ Конституцияси билан халқчил давлат сари” мавзусида тарғибот тадбири ўтказилди.



Унда Республика Маънавият ва маърифат маркази ҳарбий-ва-танпарварлик бўлими бошлиғи Мағфират Зикирова, Ўзбекистонда хизмат кўрсатган артист Алишер Атабоев, таниқли шоир ҳамда актёр Анвар Нишонов, Тошкент давлат юридик университети профессори, юридик фанлари доктори Феруза Муҳиддинова, Академия ҳарбий хизматчилари, курсантлар ҳамда ОАВ ходимлари иштирок этдилар.

Тадбир давомида янгиланаётган Конституциянинг муҳим жиҳатлари, мамлакатимиз ҳаётида тутган ўрни, унга киритилаётган янги қўшимча-

лар ва ўзгаришлар халқимиз турмуш тарзининг янада фаровонлашиши, инсон қадрини бундан-да юксалишига хизмат қилиши алоҳида таъкид-лаб ўтилди.

Шунингдек, сўнгги олти йилда эришилган натижалар, ҳуқуқ ва эр-кинликлардан келажак авлодларимиз эмин-эркин фойдаланиши учун улар-ни Конституцияда муҳрлаб қўйиш за-рурлиги хусусида фикр-мулоҳазалар билдирилди.

Фарҳоджон ХОЖАЕВ,
ФВВ Академияси катта ўқитувчиси, майор.

Тошкент вилояти ФВВ шахсий хавфсизлик бўлими ташаббусига кўра, Олмалиқ шаҳар ФВ бўлими шахсий таркиби иштирокида янги таҳрирдаги Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг мазмун-моҳиятини тушунтиришга бағишланган ўқув семинари ташкил этилди.



ЎҚУВ СЕМИНАРИ

“Мен ўз келажимга бефарқ эмасман!” шиори остида ўтказилган мазкур тадбир давомида Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги бош-қарма бошлиғи ўринбосари Бекзод Жалилов, Олмалиқ шаҳар Юридик хизмат кўрсатиш маркази бош юри-консульти Матлуба Ашурова ҳамда Ўзбекистон Республикаси юристрлар малакасини ошириш маркази вакил-лари томонидан турли тақдимотлар

намойиш қилинди. 65% янгиланаёт-ган Асосий қонунимизнинг энг муҳим жиҳатлари хусусида сўз юритилди.

Иштирокчилар референдум ва айна пайтда давом этаётган сиёсий жараёнларга оид саволларига ҳуқуқ-шунослардан тўлиқ маълумот олишди.

Шаҳзод ШЕРҚУЛОВ,
Олмалиқ шаҳар ФВ бўлими МТБ бошлиғи, катта лейтенант.

ВАЗИРЛИК БИРИНЧИЛИГИ ЎТКАЗИЛАДИ

Жорий йилнинг 12-15 апрель кунлари Бухоро шаҳрида ёнгин-қутқарув спорти бўйича эркак-лар ва аёллар терма жамоалари ўртасида Ўзбе-кистон Республикаси Фавқулодда вазиятлар ва-зирлиги биринчилиги бўлиб ўтади.

Унда маҳоратли ёнгин-қутқарувчилар жамоалари-нинг қизгин беллашуви ташкил қилинади.

Қайд этиш жоизки, ушбу мусобақаларда ФВВ ҳуду-дий Фавқулодда вазиятлар бошқармалари ва тарки-бий тузилмаларнинг ғолиб жамоалари ўзаро баҳсла-шадилар.

Тадбирнинг тантанали очилиши, мусобақа жара-ёнлари, ғолиб ва совриндорлар ҳақида газетамизнинг навбатдаги сониди маълум қиламиз.

Ўз мухбиримиз.



УШБУ СОНДА:	МАТБУОТ АНЖУМАНИ 4-бет	МАВСУМГА ҲОЗИРЛИК 5-бет	УМУМХАЛҚ ИШИ 7-бет	УЛУФ АДИБГА ЭҲТИРОМ 8-бет
--------------------	--------------------------------------	---------------------------------------	----------------------------------	---

ПРОКУРОР ВА ЁШЛАР

Ёшларни ҳарбий ватанпарварлик руҳида тарбиялаш бўйича жойларда уюшмаган ҳамда профилактик ҳисобда бўлган Тошкент вилоятининг барча туман (шаҳар) ларидан ташриф буюрган 100 нафар ёшлар билан Ангрен шаҳридаги ҳарбий қисм дала-уқув полигонидида 10 кунлик “Жасорат мактаби” йиғини ўтказилмоқда.

Мазкур йиғин давомида Бош прокурор ўринбосари – Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий прокурори Ботир Кудратходжаев иштирокида “Прокурор ва ёшлар” учрашуви ўтказилди.



Самимий ва дўстона руҳда ташкил этилган учрашувда ёшлар Ҳарбий прокурорга ўз саволлари, муаммолари билан мурожаат қилиб, тегишли ҳуқуқий тушунтиришлар, тавсияларга эга бўлдилар. Уларга мамлакатимиз ривожини, истиқболи учун ўз ҳиссаларини қўшишлари лозимлиги Ватан олдидаги бурч экани фаол ёшлар мисолида атрофлича тушунтириб ўтилди.

Шунингдек, ёшлар ўртасида спортнинг камондан ўқ отиш бўйича ҳарбий прокурор кубоги тури учун мусобақа ташкил этилди.

Ҳолиблар муносиб тақдирландилар.

Сардорбек ЁРМАТОВ,
Ўзбекистон Республикаси
Ҳарбий прокурорининг
ёрдамчиси, адлия
подполковниги.

ФИРИБГАР ЖАЗОСИНИ ОЛДИ

45 ёшли Д.Т. илк бор 1999 йилда судланган, ундан кейин ҳам ўғрилиқ ва фирибгарлик жиноятини содир этгани учун озодликдан маҳрум этилган. Бироқ, у хулоса чиқармади. Ўзгаларни алдашни “касб” қилди. 2019 йил апрель ойида Яшнобод тумани Авиасозлар мавзесида жойлашган отасининг номидаги хонадонни сотиш тўғрисида эълон берган. Эълон бўйича унга мурожаат қилган аёл билан хонадонни 26 000 АҚШ долларга сотишга келишилади. Ундан фирибгарлик йўли билан 11 000 АҚШ доллари олиб, ваъдасида турмайди.

У фуқароларни чув туширишнинг янги йўллари топади. Яъни, 2020 йил октябрь ойида Мирзо Улуғбек туманида жойлашган ва ўзи раҳбарлик қилаётган хусусий корхона офисида жабрланувчи Б.Ч.га “GM UZBEKISTAN” АЖда ишлаб чиқарилаётган янги “Nexia-3” русумли автомашинани 36 ой муддатда пулини бўлиб тўлаш билан, йиллик 12 фоиздан ва транспорт воситасини 90 кун муддатда сотиб олиб бериш тўғрисидаги олди-сотди шартномасини имзолайди. У Б.Ч.ни алдаб, 5239000 миқдордаги пулни хусусий корхона ҳисобига ўтказдиради. Аммо фирибгарлик йўли билан олинган пулни ўзининг эҳтиёжларига сарфлаб юборган.

Бундан ташқари, Д.Т. яна бир фуқарони алдаган. О.О.га “Nexia-3” русумли автомашинани 48 ой муддатда пулини тўлаб, сотиб олиш ҳуқуқи билан 90 кун муддатда олиб беришни ваъда қилган. У билан олди-сотди шартномаси тузиб, ҳисоб рақамига алдов йўли билан 5239000 сўм пулни туширтирган. Лекин бу пул ҳам шартнома кўрсатилган мақсадлар учун сарфланмасдан Д.Т.нинг эҳтиёжлари учун ишлатилган.

Д.Т. жиноий ҳаракатларни давом эттириб, Н.А.ни ҳам чув туширади. Бу гал у янги “мижоз”га “Spark” автомашинасини олиб беришни ваъда қилган. Ҳисоб рақамига эса олдиндан тўлов дея 4551000 сўм миқдордаги пулларни туширтирган. Шартнома шартини бажариш эса яна унинг “эсида” чиқади.

Ишончли суистеъмол қилиш йўли билан ўзганинг мулкни қўлга киритиш мақсадида Д.Т. жабрланувчи М.Ж.га янги “Damas” ни 90 кун ичида олиб беришни ваъда қилади. Ундан ҳам ҳисоб рақами орқали 4751000 сўм миқдордаги пулни қабул қилиб олади.

Б.И. ҳам Д.Т.нинг “қармоғи”га илинганлардан бири. Д.Т. унга 90 кун ичида “Cobalt” олиб беришни айтиб, 5746000 сўмга шартнома тузади. Аммо у пул ҳам шахсий эҳтиёжлар учун ишлатилди.

Хуллас, Д.Т.га алданган фуқаролар кўпчиликини ташкил этади. Яқинда судда унинг иши кўриб чиқилди. Д.Т. 7 йилу 8 ой муддатга озодликдан маҳрум этилди. У жазони қаттиқ тартибли колонияда ўтамоқда.

Фаррух ЭРГАШЕВ,
жиноят ишлари бўйича Яшнобод
туман судининг судьяси.

Азимжон ҲАКИМОВ,
Судьялар олий мактаби
тингловчиси.

ЯНГИЛАНАЁТГАН КОНСТИТУЦИЯ

Бугунги кунда жамиятимизда кечаётган ўзгаришлар, глобаллашув жараёнларининг тезлашиши, мамлакатимизда бозор иқтисодиётига ўтиш жараёнининг фаоллашуви, Тараққиёт стратегиясида белгиланган ва мантиқий кетма-кетликда амалга оширилаётган ишлар, биринчи навбатда, инсон қадрини улуғлашга қаратилгани, аҳолининг ижтимоий ҳимояга муҳтож қатламлари ҳимоя қилиши нуқтаи назаридан амалдаги Конституцияга тегишли қўшимча ва ўзгартиришлар киритиш эҳтиёжини юзага келтирди.

Сабаби, ўтган йиллар давомида ижтимоий-иқтисодий, сиёсий-ҳуқуқий, маънавий-маърифий ва бошқа йўналишларда кенг қўламли ишларни амалга ошириш, аҳолини ижтимоий ҳимоя қилиш билан боғлиқ муаммоларни ҳал этишда амалдаги қонунчилигимизда бироз бўшлиқлар мавжудлигидан кўз юмиб бўлмайди.

Мазкур бўшлиқларни тўлдирish, қонунчилигимизни такомиллаштириш орқалигина Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегиясини амалга ошириш мумкин. Хусусан, Ўзбекистон Респуб-

ликсининг янгиланаётган Конституциясида инсон ҳуқуқларига оид энг муҳим ўзгаришлар қуйидагиларда акс этади:

Инсон ҳуқуқ ва эркинликлари ҳар кимга туғилганидан бошлаб тегишли бўлади.

Инсоннинг шаъни ва қадр-қиммати дахлсиздир.

Инсон ҳуқуқ ва эркинликлари бевосита амал қилади ҳамда қонунларнинг, давлат органларининг ва уларнинг мансабдор шахслари фаолияти мазмун ва моҳиятини белгилайди.

Ҳеч кимга унинг розилигисиз қонунчиликда белгиланмаган мажбурият юклатилиши мумкин эмас.

Инсонга нисбатан қўлланиладиган ҳуқуқий таъсир чоралари мутаносиблик принципига асосланиши ва қонунларда назарда тутилган мақсадларга эришиш учун етарли бўлиши керак.

Ҳар ким ўз шахсига доир маълумотларнинг ҳимоя қилиниши ҳуқуқига, шунингдек, нотўғри маълумотларнинг тузатилишини, ўзи тўғрисида қонунга хилоф йўл билан тўпланган ёки ҳуқуқий асосларга эга бўлмаётган қолган маълумотларнинг йўқ қилиниши-

ни талаб қилиш ҳуқуқига эга.

Ҳар ким мамлакат бўйлаб эркин ҳаракатланиш, турар ва яшаш жойини танлаш ҳуқуқига эга.

Ҳар ким уй-жой дахлсизлиги ҳуқуқига эга.

Ҳар ким ўз ҳуқуқ ва эркинликларини қонунда тақиқланмаган барча усуллар билан ҳимоя қилишга ҳақли.

Шахсининг судланганлиги ва бундан келиб чиқадиган ҳуқуқий оқибатлар унинг қариндошлари ҳуқуқларини чеклаш учун асос бўлиши мумкин эмас.

Ушбу ислохот, чин маънода, ҳаётий заруриятдир. Зеро, Бош Қомусимиз мамлакатимизнинг ҳар томонлама равнақ топиши, одамларнинг бахтиёр яшашида маёқ бўлиб, халқимизнинг тинч, обод ва фаровон ҳаётини таъминлаш, жамият ҳаётининг барча соҳаларида олиб борилаётган ислохотларнинг муваффақиятли амалга оширилишида мустаҳкам пойдевор вазифасини ўтайди.

М.ҲАСАНОВА,
жиноят ишлари бўйича Сергели
туман суди судьяси.

Х.ШАМШИЕВ,
Тошкент шаҳар суди судьяси.

BIZ BEFARQ EMASMIZ!

Farg'ona viloyati FVB Yozyovon tumani FV bo'limi xodimlari mamlakatimiz hayotidagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy jarayonlarga o'z hissasini qo'shishga intiladi.

Yurtimizda qisqa fursatlardan so'ng muhim siyosiy jarayon, ya'ni O'zbekiston Respublikasi yangi Konstitutsiyaning loyihasini qabul qilish bo'yicha referendum o'tkaziladi. Yangilanayotgan Konstitutsiyaning bosh maqsadi inson qadri va xalq manfaatlarini amalda ta'minlay olishdir. Har bir

yurtdoshimiz ushbu hujjatni chin ma'noda, mening hujjatim, mening



Konstitutsiyam deya faxrlanadigan mukammal darajaga olib chiqish lozim.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining muqaddimasida xalqimizning demokratiya g'oyalari, ijtimoiy adolat, erkinlik va tenglik kabi qadriyatlarga sodiqligi ifoda etilgan. Ijtimoiy adolat tamoyili mamlakatimizda jamiyat hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini belgilab beradi.

A.SOTVOLDIYEV,
Farg'ona viloyati FVB
Yozyovon tumani FV bo'limi
bo'linma boshlig'i, leytenant.

“ЯШИЛ МАКОН” ЛОЙИХАСИ



“Яшил макон” умуммиллий лойиҳасига асосан, “Қамчиқ” махсус қидирув, ёнғин-қутқарув бошқармаси томонидан бошқарма ҳуду-

дида ташкил этилган боғда мевали ҳамда манзарали дарахтлар экилган бўлиб, уларга ўз вақтида шакл бериш, парваришlash, мевали да-

рахтларнинг ҳосилдорлигини ошириш мақсадида, биоозуқалар (биоомус) ва турли зараркунанда ҳашаротларга қарши дорилаш ишлари олиб борилмоқда.

Бошқарма ҳудудида яратилган боғдаги дарахтларга ҳар бир отряддан масъул шахслар бириктирилган. Улар дарахтларнинг тўғри ривожланиши, парвариши ва ўз вақтида суғорилиши учун масъул бўлиб, боғни ободонлаштириш ишларини амалга оширдилар.

У.ТОЖИЕВ,
“Қамчиқ” МКҲҚБ авария-қутқарув отряди “Чодак” авария-қутқарув гуруҳи командири, кичик сержант.

ДАВРА СУҲБАТИ

ФВВ Академиясида “Ўзбекистон Республикаси Конституциявий қонуни лойиҳасининг энг муҳим ўзига хос хусусиятлари” мавзусида давра суҳбати бўлиб ўтди.

Унда Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Давлат ва ҳуқуқ институти директори ўринбосари юридик фанлар доктори, профессор Абдуманноп Тўлаганов, ФВВ Академияси ҳарбий хизматчилари ва курсантлари ҳамда ОАВ вакиллари иштирок этдилар.

Профессор Абдуманноп Тўлаганов мавзу юзасидан маъруза қилар экан, ижтимоий давлатга хос ёндашувлар Конституция лойиҳасининг таълим соҳасига оид кўплаб модда ва нормаларида ўз ифодасини топгани, таълим ва илм-фанга тааллуқли нормалар сони қарийб икки баробарга оширилиб, таълим олиш ҳуқуқи ва имкониятлари тубдан кенгайтирилаётганини алоҳида таъкидлади.

Ўзбекистон Республикаси Конституциясига киритилаётган ўзгариш ва қўшимчаларнинг ҳажми ва кўлами, хусусан, унинг моддалари 128 тадан 155 тага кўпаяётганлиги, амалдаги 128 та моддадан 91 тасига концеп-

туал ўзгартиришлар киритилаётганлигини қайд этиб ўтди.

Шунингдек, Конституцияда давлатнинг ўқитувчилар шаъни ва кадр-қиммати ни ҳимоя қилиш, уларнинг ижтимоий ва моддий фаровонлиги касбий жиҳатдан ўсиши тўғрисида ғамхўрлик қилиш мажбурияти кучайтирилаётгани, шу тарихда мамлакатимиздаги 685 минг нафардан ортиқ ўқитувчининг профессионал ўсиши ҳамда ижтимоий ва моддий кўллаб-қувватланишини ҳуқуқий кафолатлаш натижасида уларнинг жамиятдаги ижтимоий мақоми, обрў-эътибори янада ошишини алоҳида эътироф этди.

Самимий ва фойдали мулоқот тадбир иштирокчиларига манзур бўлди. Ҳарбий хизматчилар ва курсантлар ўзларини қизиқтирган саволларга батафсил жавоб олдилар.

Фарҳоджон ХОЖАЕВ,
ФВВ Академияси катта ўқитувчиси, майор.



МАЛАКАЛАР МУСТАҲКАМЛАНДИ

Бухоро вилояти ФВБ шаҳар ва туманлар ФВ бўлимлари бошлиқлари, уларнинг ўринбосарлари, норматив-техник бўлинмалар бошлиқлари, профилактика ва назорат бўйича инспекторлар ҳамда ФВДТ ва ФМ фаолиятини ташкил этиш бўлинмаси бошлиқлари иштирокида ўқув семинари ўтказилди.



Семинарни бошқарма бошлиғи полковник А.Абдухаликов кириш сўзи билан очиб, тадбир аҳамиятига тўхтади.

Шундан сўнг ўқув семинари дастурига мувофиқ, Бухоро вилояти маъмурий ва терговга қадар текширувни юритиш бўлими бош инспектори томонидан профилактика ва назорати органлари томонидан ёнғинлар бўйича терговга қадар текширишни олиб бориш

тартиби ва расмийлаштирилган ҳужжатларни тузиш, маъмурий чораларни қўллаш ва ҳужжатларни белгиланган тартибда тўлдиришда йўл қўйилаётган камчиликларга тўхталиб ўтилди.

Семинар давомида бошқарма бош инспектори ҳам сўзга чиқиб, Ўзбекистон Республикаси ФВВнинг соҳага оид тегишли низом ва буйруқларининг мазмун-моҳиятини етказган ҳолда,

мутахассисларга зарур кўрсатма ва тавсиялар берди.

Тадбир якунида келгусида амалга оширилиши лозим бўлган чора-тадбирлар юзасидан тегишли қарорлар қабул қилинди.

Наргиза АЙНАЗАРОВА,
Бухоро вилояти ФВБ бош инспектори, подполковник.

Шерзод ЯРАШЕВ,
ЁнВАПТЭБ бош инспектори, капитан.

Тошкент шаҳар ФВБ, туман ва объектларда ёнғин хавфсизлигини таъминлаш бўлимлари шахсий таркиби ўртасида хизмат мавқеидан фойдаланган ҳолда порахўрлик ва тамагирлик каби иллатларнинг олдини олишга қаратилган қатор учрашувлар, давра суҳбатлари ўтказиб келинмоқда.

БУРЧ ВА МАСЪУЛИЯТ

Бугунги кунда коррупцияга қарши кураш мақсадларига фақат жиноят-ҳуқуқий воситалар билан эришиб бўлмаслигини ҳаётнинг ўзи кўрсатмоқда. Ўйлаймизки, бундай маънавий бузилиш ҳолатига қарши курашда нафақат давлат органлари, балки жамият ҳамда барча фуқароларимиз масъулдирлар. Шундай экан, айни иллатнинг олдини олиш ҳамда унга қарши курашнинг энг мақбул йўли давлат ва нодавлат нотижорат ташкилотлари, шунингдек, инсонларнинг биргаликда ҳаракат қилишдан иборатдир. Бу масалада барчамиз огоҳ ва ҳушёр бўлишимиз зарур.

Ш.ЭСОНОВ,
Тошкент шаҳар ФВБ шахсий хавфсизлик бўлими бошлиғи, подполковник.

КО‘НИКМАЛАР OSHIRILDI

Urganch harbiy prokuratura-si mas'ul xodimlari tomonidan huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari uchun “Jinoyat yoki hodisa haqidagi xabarlar yuzasidan birlamchi harakatlar, hodisa joyini ko'zdan kechirishga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish tartibi” mavzusida o'quv seminari o'tkazildi.

Unda yong'in sodir bo'lganda Davlat yong'in nazorati inspektorlari tomonidan tergovga qadar tekshiruv harakatlarini olib borish tartibi, voqea joyini ko'zdan kechirish hamda o'rganish tartibiga alohida e'tibor qaratildi.

Seminar davomida xodimlarning nazariy hamda amaliy ko'nikmalari yanada oshirilib, barcha savollarga javob berildi.

R.QADAMBOYEV,
Xonqa tumani FV bo'limi xodimi, katta leytenant.

AMALIY TARZDA

Shahrisabz shahar FV bo'limi tomonidan 40 ta MFY da yashayotgan fuqarolarning 3562 nafariga yong'in xavfsizligi qoidalariga amal qilish hamda is gazidan ogoh bo'lish borasida targ'ibot ishlari amalga oshirildi. Shu bilan bir qatorda, 360 dona eslatma va yo'riqnoma tarqatildi.

Qolaversa, shahardagi 20-umumta'lim maktabida FM kuni tabdiri o'tkazilib, o'quvchi yoshlarga va ishchi xodimlariga tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar yuzaga kelganda harakat qilish qoidalari o'rgatildi.

U.SHARIPOV,
Shahrisabz shahar FV bo'limi boshlig'i o'rinbosari, podpolkovnik.



G'OLIBLAR ANIQLANDI

Qashqadaryo viloyati FVB qutqaruvchilari o'rtasida sportning mini-futbol turi bo'yicha viloyat birinchiligi o'tkazildi.

Bo'lib o'tgan bahslar davomida boshqarma hamda uning quyi tuzilmalarida xizmat olib borayotgan qutqaruvchilardan iborat 45 ta jamoa qatnashdi.

Bellashuvning birinchi kunida viloyat yong'in-qutqaruv garnizonining professional yong'in-qutqaruv qismlari hamda maxsus vazifalarni bajaruvchi mintaqaviy qutqaruv otryadi qutqaruvchilaridan iborat jami 20 ta jamoa, shuningdek, 24 ta harbiy jamoalar g'oliblik uchun o'zaro kuch sinashdilar.

Bahslar natijalariga ko'ra, xizmatchilar o'rtasida 1-o'rin maxsus vazifalarni bajaruvchi mintaqaviy qutqaruv otryadi qutqaruvchilariga nasib etgan bo'lsa, bellashuvlarda eng tartibli harakat qilgan Kasbi tumani FV bo'limi jamoasi 2-o'rinni va Koson tumani FV bo'limi jamoasi 3-o'rinni qo'lga kiritdi.

Harbiy xizmatchilar o'r-

tasidagi bellashuvlarda 3-o'rinni "Sho'rtangazkimyo" majmuasi 39-yong'in-qutqaruv qismi jamoasi egallagan bo'lsa, Sho'rtan neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasining 36-yong'in-qutqaruv qismi jamoasi 2-o'ringa loyiq ko'rildi. Muborak neft va gaz qazib chiqarish boshqarmasi binolarida yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish



bo'limining 32-yong'in-qutqaruv jamoasi bu gal jasorat ko'rsatib, bahslarda 1-o'rinni qo'lga kiritdi.

Musobaqada faol ishtirok etib, sovrinli o'rinlarni egallagan jamoalar boshqarmaning medal, faxriy yorliq va qimmatbaho sovg'alari bilan taqdirlandilar.

Ulug'bek JUMANOV,
Qashqadaryo viloyati
FVB matbuot xizmati
xodimi.

O'tkir YODGOROV,
boshqarma xodimi,
birinchi darajali serjant.

TAYYORGARLIKDAN O'TKAZILDI

Buxoro viloyati FVB Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazida viloyatning Qorovulbozor, Peshko' va Romitan tumanlari umumta'lim maktablarining hayot faoliyati xavfsizligi fani o'qituvchilari favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakatlanish bo'yicha tayyorgarlikdan o'tkazildi.



Tadbir "Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish va fuqaro muhofazasi" o'quv dasturiga asosan tashkil etildi. Tinglovchilarga aholini favqulodda vaziyatlarda harakatlanishga tayyorlash sohasida ta'lim berishda dars mashg'ulotlarini boshqarishning shakl, vosita va usullari yuzasidan tushunchalar berildi.

O'quv kursi yakuni bo'yicha sinovlarni muvaffaqiyatli topshirgan tinglovchilarga guvohnomalar topshirildi.

S.BOZOROV,
J.TUYMURODOV,
Buxoro viloyati FVB HFXO'M
o'qituvchilari.

MATBUOT ANJUMANI

Mingbuoq tumani Madaniyat saroyida "Viloyat aholisi orasida u'ta xavfli yuqumli kasalliklar xamda ovqatdan zaharlanish bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarining oldini olish" xamda "Krim-Kongo gemorragik isitma kasalligi tarqalishining oldini olish" mavzularida OAV vakillari ishtirokida matbuot anjumani va kurqazmali maxsus-taktik yuqum mashqi bulib ytdi.

Mazkur tadbirlar davomida viloyat FVB mutaxassislar tomonidan u'ta xavfli yuqumli kasalliklarning viloyat hududiga kirib kelishi va tarqalishining oldini olish buyicha tushunchalar berildi. Viloyat Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmasi boshlig'i yurinbosari Krim-Kongo gemorragik isitma kasalligi va uning oldini olish xaqida uz fikr-muloqazalarini bildirdi.

Kunning ikkinchi yarmida kurqazmali maxsus-taktik yuqum mashqi ytkazilib, tuman

tibbiyot birlashmasi qabul bulimi, yuqumli kasalliklar bulimi va shartli be-



mor xonadonida Krim-Kongo kasalligi bilan murojaat qilgan bemorni aloxidalash, davolash xamda kasallik yuchogida mutasaddi xodimlar tomonidan uyma-uy yurib, tarqibot-tashviqot ishlarini olib boriq, dezinfekcia, dezinspekcia va deratizacia ytkazish tartibi amalda kurqazib berildi.

Qaxramon SATTOROV,
Namanqan viloyati FVB
OAVvaJTBXQK boshlig'i,
kapitan.

Mirishkor va Kasbi tumanlarida "Aholi o'rtasida Krim-Kongo gemorragik isitma kasalligi tarqalishining oldini olishda FVDTga kiruvchi xizmatlarning hamkorlikdagi harakatlari" mavzusida ko'rgazmali maxsus-taktik o'quv mashqi bo'lib o'tdi.

KASALLIKKA QARSHI

Unda viloyat FV, Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish, Sog'liqni saqlash hamda Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi boshqarmalarining mas'ullari ishtirok etdilar.

Nazariy qismda tuman hududida faoliyat olib borayotgan mutasaddi tashkilotlar va qorako'lchilik jamiyatlari mas'ullariga mutaxassislar tomonidan o'quv mashq rejasiga va uning asosiy maqsadlari inson salomatligi bilan bevosita bog'liq amaliy choralaridan ekanligi bo'yicha batafsil ma'lumot berildi.

Mashq rejasiga ko'ra, shartli kasallikka gumon qilingan bemorga tashxis qo'yish, alohidalash, davolash muolajalarini va bemor qabul qilingan davolash profilaktika muassasasida yakunlovchi dezinfeksi-

ya tadbirlari amalda ko'rsatib o'tildi.

Shuningdek, mutaxassislar tomonidan epidemiologik hamda epizootologik surishtiruv ishlari, kasallik manbai va yuqish omillarini aniqlash, aniqlangan kasallik sabab cheklov e'lon qilingan hududda uyma-uy yurib, aholi orasida tushuntirish ishlari olib borish hamda kasallik o'chog'ida zarur epidemiyaga qarshi va sanitar-veterinar tadbirlar olib borildi.

Mashq yakunida o'quv mashqi ishtirokchilari tomonidan yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar muhokama qilindi.

Ramazon TURDIYEV,
Qashqadaryo viloyati FVB
bo'lim boshlig'i, kapitan.
Abbos HAMRAYEV,
Nishon tumani FV
bo'limi inspektori, kapitan.



TALABALAR BILAN MASHG'ULOT

Olmazor tumani FV bo'limi tomonidan O'zbekiston Milliy universiteti 3-talabalar turar-joyida favqulodda vaziyat yoki yong'in sodir bo'lganda harakat qilish borasida amaliy-taktik mashg'ulot o'tkazildi.



Dastlab mutaxassislar tomonidan favqulodda vaziyatlar xususan, zilzila vaqtida choralar ko'rish, bunday vaqtda odam sarosimaga tushmay, o'zini-o'zi boshqara olishi, darhol xavfsiz joyga o'tish kerakligi ta'kidlandi. Yer silkinishi xavfi bo'lganda binodan chiqish yo'lini oldindan belgilab qo'yish lozimligi, chiqish yo'llari, eshiklardan binoni zudlik bilan tark etish kerakligi, shu bilan birga, birinchi qavat derazalari orqali ham binoni tark etishni amalga oshirish mumkinligi tushuntirildi.

Uy ichidagi xavfsiz joylar – xonaning asosiy devorlari orasidagi burchagi, ichki eshiklar o'rni, stol, karavot, stanoklar osti bo'lsa, uyning eng xavfli joylari ichki hamda tashqi deraza ostilari, devorlarning oyna bilan qoplangan qismlari, ayniqsa, oxirgi qavatlardagi burchakda joylashgan xonalar, lift va zinapoya maydonchalari hisoblanishi aytiladi.

Xodimlar tomonidan talabalar hamda murabbiylarga bunday vaziyatda osoyishtalik va xotirjamlikni saqlash hamda boshqalarga o'mak bo'lish lozimligi ta'kidlab o'tildi.

Muzaffar MURODOV, Olmazor tumani FV bo'limi
bo'linma inspektori, katta leytenant.

АЭРОПОРТДА МАШК

Ўта муҳим, тоифаланган ва қуриқланадиган объектларда ёнғин хавфсизлиги бошқармаси “Uzbekistan Airports” АЖ объектларида ёнғин хавфсизлигини таъминлаш бўлими ва “Испом Каримов номидаги Тошкент халқаро аэропорти” МЧЖ ҳамкорлигида “Аҳоли ва ҳудудларни фавқулодда вазиятлардан муҳофазга қилиш, ёнғин хавфсизлигини таъминлаш ва фуқаро муҳофазаси тадбирларини ўтказиш” мавзусида ўқув семинари ташкил этилди.



Мазкур тадбир доирасида “Табиий офатларни вужудга келтирувчи сабаблар ва муҳофазаланиш қоидалари” ҳамда “Табиий офатлар содир бўлганда аэропорт ишчи-хизматчиларининг аэропорт ҳудудига ташриф буюрган йўловчилар хавфсизлигини таъминлашдаги бирламчи ҳаракатлари” ва

“Зилзила содир бўлган вақтда тўғри ҳаракатланиш” мавзуларида ўқув машғулоти, шунингдек, “Табиий ҳамда техноген хусусиятли фавқулодда вазиятлар” мавзуларида видеолар намоиши этилди.

Йиғилиш якунида иштирокчиларга ёнғин-қутқарув, сувда-қутқарув ва қидирув-

қутқарув автомобиллари ҳамда уларга тегишли асбоб-анжомлар кўргазмаси ташкил этилди.

Иштирокчилар ўзларини қизиқтирган саволларга жавоб олдилар.

Б.ТЎХТАМУРОТОВ,
ФВВ “Uzbekistan Airports”
АЖ объектларида ЁХТ
бўлими инспектори, катта лейтенант.

ЎҚУВЧИЛАР УЧУН ЭСЛАТМА

ФВВ Академияси ҳузуридаги Фуқаро муҳофазаси институти ходимлари томонидан Тошкент шаҳар Яшнобод тумани 275-умумтаълим мактаби ўқувчилари билан “Турли хусусиятли фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш ҳамда содир бўлганда тўғри ҳаракат қилиш” мавзусида ўқув семинари ўтказилди.



Тадбир давомида ўқувчилар билан назарий машғулотлар олиб борилиб, фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш, содир бўлганда тўғри ҳаракатланиш, шунингдек, шахсий ҳимоя воситаларидан тўғри фойдаланиш юзасидан маълумотлар берилди.

Савол-жавобларга бой тарзда ўтган семинарда ўқувчилар олган билимларини амалда қўллаш имкониятига эга бўлдилар.

К.ДЖУМАКУЛОВА, Д.ТОЖИБОЕВА,
ФВВ Академияси ҳузуридаги
ФМИ ўқитувчилари.

БАРТАРАФ ЭТИЛДИ

Тошкент шаҳар ФВВ тезкор бўлимининг видеокамерасида Сергели тумани “Қутбарака” маҳалласи Янги Сергели кўчасида жойлашган янги қурилиш ҳудудидан қора тутун чиқаётганлиги аниқланган.

Шунга кўра, Сергели тумани ФВ бўлими 9-ЁҚҚга Тошкент шаҳар ФВВ тезкор бўлимининг “101” рақамидан ёнғин ҳақида хабар келиб тушган. Жанговар бўлинма воқеа жойига текширувга чиқарилган.

Ўрганишлардан маълум бўлишича, Сергели тумани “Қутбарака” маҳалласи Янги Сергели кўчасида жойлашган “Т-СОД” МСХЖга қарашли янги қурилиш биносининг 1-қаватида бочкада қора сақич эриганлиги оқибатида атрофга қора тутун тарқалган. Ҳолат ёнғин-қутқарув хизмати ходимлари томонидан бартараф этилган. Ҳодиса оқибатида, куйиш ёки тан жароҳати олиш билан боғлиқ ҳолатлар қайд этилмаган.

А.РАҲМАТОВ,
Сергели тумани ФВ бўлими
бошлиғи ўринбосари,
подполковник.

“ҚИЗИЛЧА”ДА СИНОВ

Деҳқонобод тумани “Қизилча” МФЙ ҳудудида “Зарарли чигирткаларга қарши кураш тадбирларини ташкил этиш ва амалга ошириш” мавзусида мутасадди хизматлар билан ҳамкорликда махсус-тактик ўқув машқи ўтказилди.

Тадбирга Экология ва атроф-муҳитни муҳофазга қилиш, чигирткага қарши кураш хизматлари, қишлоқ хўжалиги, фавқулодда вазиятлар бўлимлари, Тиббиёт бирлашмаси ва туман ҳокимлигининг масъул ходимлари, куч ва воситалари жалб этилди.

Машқ давомида ҳудуд-



ларда зарарли чигирткалардан муҳофазга қилиш борасида кечиктириб бўлмайдиган чора-тадбирларни амалга ошириш юзасидан масъул вакилларга кўрсатма ва тушунтиришлар берилди.

Ўткирбек ЙЎЛДОШЕВ,
Деҳқонобод тумани ФВ
бўлими бўлинма бошлиғи,
майор.

Сайдулло АБДУЛАЗИЗОВ,
етакчи инспектор.

ҲАМКОРЛИКДАГИ САБОҚ

ФВВ Академияси ҳузуридаги Фуқаро муҳофазаси институти профессор-ўқитувчилари томонидан ИИБ ҳузуридаги Жазони ижро этиш департаментида сел, сув тошқини, қор кўчиши, кучли шамол тўғри ҳаракатланишга оид назарий ва амалий суҳбат ўтказилди.



Суҳбат давомида иштирокчиларга табиий хусусиятли фавқулодда вазиятларнинг келиб чиқиш сабаблари, уларнинг олдини олиш борасида республикамизда амалга оширилаётган муҳофазга тадбирлари, шунингдек, фавқулодда вазиятлар хавфи туғилганда ва содир бўлганда аҳолининг тўғри ҳаракат қилиш қоидалари тўғрисида маълумотлар айтилди. Ходимларни қизиқтирган саволларга ҳаётий мисоллар асосида жавоблар берилди.

Айни тадбирлар ҳозирда изчил давом эттирилмоқда.

Х.АЗИМОВ, ФМИ кафедра катта ўқитувчиси.

МАВСУМГА ҲОЗИРЛИК

“Қамчиқ” МҚЁҚБ тасарруфидаги автотранспорт воситалари ҳамда ёнғин ўчириш машиналарини баҳор-ёз мавсумига тайёрлаш юзасидан тадбир ташкил этилди.

Унда Тошкент вилояти ЙХХБ масъул ходими томонидан ҳайдовчиларга

да йўл ҳаракати қоидалари, йўл белгиларига қатъий риоя этиш, тезликни белги-



техникани бошқаришдан олдин унинг техник соғлиги, ёритиш чироқларининг тўлиқ ёниши, тормоз тизими соғлиги, совутиш суюқлиги, мотор мойи меъёридалигига алоҳида эътибор қаратилиши айтилди. Шунингдек, ҳайдовчилар томонидан махсус ҳамда ёрдамчи техникаларда ҳаракатланган-

ланган меъёридан оширмаслик бўйича тушунтириш ишлари олиб борилди.

Тадбир давомида ҳайдовчилар йўл белгилари, тезлик меъёрлари бўйича билим ва кўникмаларини янада оширдилар.

К.ЭШҚЎЗИЕВ,
“Қамчиқ” МҚЁҚБ катта
техниги, кичик сержант.

НАЗОРАТ

Жиззах вилояти ФВВ, вилоят прокуратураси, Экология ва атроф-муҳитни муҳофазга қилиш бошқармаси, “Айдар-Арносой кўллари тизими” МЧЖ ходимларидан иборат ишчи гуруҳ таркибида назорат-рейд тадбирлари ўтказилди.

Бунинг натижасида ФВВ ходимлари томонидан 14 нафар кичик ҳажмли кема эгаларига нисбатан маъмурий ҳуқуқбузарлик ҳолати бўйича баённомалар расмийлаштирилди ҳамда 42 нафар фуқаро билан тушунтириш ишлари олиб борилди.

Тадбирлар давомида иштирокчилар атроф-муҳитни асраш, биологик ресурслардан оқилона фойдаланиш, хавфсизлик қоидаларига мос келмайдиган қайиқлардан фойдаланмаслик, кичик ҳажмли кемаларни ўз вақтида техник кўриқдан ўтказиш, қутқарув воситаларидан фойдаланган ҳолда ҳаракатланиш, рухсат этилмаган тўлқин баландлигидан сувга тушмаслик, спиртли ичимлик истеъмол қилган ҳолда қайиқни бошқариш мумкин эмаслиги ҳақида огоҳлантирилди.

Т.ҲАМРАЕВ, Жиззах вилояти ФВВ бўлим бошлиғи, капитан.
И.УМАРОВ, ахборот хизмати раҳбари, катта лейтенант.

AVTOMOBILDA YONG'IN CHIQQANDA

Avtomobillarda yong'in kelib chiqishining qator sabablari mavjud. Elektr simlarining qisqa tutashuvi hamda yonilg'ining sizib chiqishi amaliyotda eng ko'p uchraydi. Benzin va dizelda harakatlanuvchi avtomobillarda yonilg'i sizib chiqishini darhol payqash qiyin. Agar dvigatel sovuq holatda bo'lsa, hidni salonda ham sezish mumkin. Ammo dvigatel qizib turgan holda yonilg'i juda tez bug'lanadi va uni sezish mushkul. Benzin bug'lari alanganlanish xususiyatiga ega bo'lgani bois, juda kichik uchqun ham yong'in-ga sabab bo'lishini muqarrar.

Siqilgan gaz balloni o'ratilgan avtomobil-larda, asosan, gaz ballonlaridagi texnik no-sozlik, yorilish, reduktor va gaz trubkasining ishdan chiqishi oqibatida ko'p miqdorda yonuvchi gaz tashqariga otilib chiqadi. Bu, o'z navbatida, yonish va portlash xavfini yuzaga keltiradi. Bundan tashqari, ayrim hollarda salonda chekish, yengil alanganlanuvchi moddalarni tashishda e'tiborsizlik oqibatida ham yong'in sodir bo'lishi mumkin.

Transport vositasida yong'in sodir bo'lganda har qanday holda ham va-himaga tushmaslik lozim. Avtomobilni yo'lning chetki qismi, imkon boricha odamlar va binolardan uzoqroq joyda to'xtating. Dvigatelni o'chiring, "qo'l tormozi"ni ishlating, yong'in-qutqaruv qismiga xabar qiling. Yong'in o'chog'i hamda yong'in ko'lamini baholashga harakat qiling.

Agar yong'in o'chog'i yonilg'i yoki gaz balloni-da bo'lsa, undan uzoqlashish kerak. Bunday yong'inni o'chirishga urinish xavfli. Qutqaruvchilar yetib kel-gunicha yong'inning boshqa avtomobillar va binolarga o'tib ketishining oldini olish hamda insonlar xavfsizligini ta'minlash lozim. Agar yong'in o'chog'i avtomobilning dvigatel qismida bo'lsa, uni mustaqil o'chirishga harakat qilish mumkin. Kapot qizigan bo'lishi va uni ochishda kuyib qolish ehtimoli bor. Bundan tashqari, kapotning ochilishi ichkariga kislorod kirib, yong'inning yanada avj olishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu sababli, yong'in o'chirgichni shay holatga keltirib, mato bilan kapotni ochish tavsiya etiladi. Yong'in o'chirgichni olovga to'g'rilab ishlating, boshqa yo'lovchi va haydovchilarni ham yordamga chaqirish lozim. Yong'inni o'chirishda tuproq, qor, ariq suvlaridan ham foydalanish mumkin.

Bundan tashqari, yong'in joyini havo o'tkazmaydigan mato bilan yopish mumkin. Faqat mato zich yopilishi kerak. Aks holda yong'in yanada kuchayadi.

A.ZUPARXODJAYEV,

Olmazor tumani FV bo'limi boshlig'i o'rinbosari, mayor.

Тошкент тумани "Оқибат" МФИ ҳудудидаги "Yangi davr talabi" МЧЖ томонидан қурилиш ишлари олиб борилаётган объектда қурувчилар билан "Қурилиш жойларида ёнғинларнинг олдини олайлик!" мавзусида йиғилиш ўтказилди.

ҚУРУВЧИЛАР ИШТИРОКИДА



Мазкур тадбир давомида қурувчиларга ёнғин ва бошқа фавқулдда ҳолатларда қандай ҳаракатланиш кераклиги юзасидан тушунтириш ишлари олиб борилди ва бу борада муҳим тавсиялар берилди.

Қайд этилганидек, ҳозирги кунда аҳоли хо-надонларида содир бўлаётган ёнғинларнинг асосий сабабларини ёнғин хавфсизлиги қоидаларига совуққонлик ҳамда эътиборсизлик билан қараш ҳолатларининг кўпайиб бораётгани билан изоҳлаш мумкин. Шундай экан, фавқулдда вазиятларнинг олдини олиш, аҳоли турар жойларида, қурилиш биноларида ёнғин хавфсизлигини таъминлашга эришиш нафақат соҳа мутахассислари, балки қурувчи ва ишчилар, қолаверса, ҳар бир фуқаронинг бурчи эканлигини унутмас-лигимиз лозим.

Ҳожиакбар АРТИҚБОЕВ,
Тошкент тумани ФВ
бўлими МТБ бошлиғи,
катта лейтенант.

Хоразм вилояти
FVB va uning quyi tizimlari to-
monidan Bog'ot tumanidagi umumta'lim
maktablarida "Fuqaro muhofazasi kuni" tadbir-
lari o'tkazildi.

FM TADBIRLARI

Unda favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda sarosimaga tushmaslik, o'zi hamda atrofidagilarining xavfsizligini ta'minlash, hayotini asrash uchun qanday himoyalanih va to'g'ri harakatlanish qoidalari bo'yicha ma'lumotlar berildi.

Qolaversa, bunday jarayonda tegishli soha xodimlarining ishtiroki va ularning zimmasidagi vazifalar, qidiruv-qutqaruv harakatlarini olib borish tartibi yuzasidan tushuntirishlar berildi. Tadbirda maxsus asbob-anjomlar, texnikalar ko'rgazmalari tashkil qilindi.

Bu kabi targ'ibot tadbirlari favqulodda vaziyatlar kuzatilganda aholining qay tartibda harakat qilish borasidagi ko'nikmalarini oshirib borish va inson hayotini muhofazalashga xizmat qiladi.

Boxtigul JUMANIYAZOVA,
Bo'g'ot tumani FV bo'limi
yetakchi mutaxassisi.



ПРОФИЛАКТИКА

Сергели туманидаги "Янги Сергели" МФИда аҳоли иштирокида ёнғин ва бошқа тусдаги фавқулдда вазиятларнинг олдини олиш, содир бўлганда оқибатларини бартараф этиш тадбирлари юзасидан учрашув ташкил қилинди.

Учрашув давомида табиий ва техноген офатлар, юзага келиш сабаблари, уларда тўғри ҳаракатланиш, қутқарув ишларини амалга ошириш юзасидан зарур маълумотлар берилиб, кўргазмалари материаллар тарқатилди.

Тадбир якунида иштирокчиларнинг савол-рига мутахассислар томонидан атрафлича жавоб берилди.

Зебохон ОРУНОВА,
Тошкент шаҳар ФВБ ЁХТТЭБ
мутахассиси, оддий аскар.

Яшнобод тумани "Янги нур" МФИ Махтумқули кўчасидаги объектлар ёнғин хавфсизлиги хизмати ходимлари томонидан ўрганилиб, фуқароларга ёнғин ва бошқа тусдаги фавқулдда вазиятларнинг олдини олиш юзасидан тушунтириш ишлари олиб борилди.

ЎРГАНИШ ВА ТАВСИЯ



Тадбир давомида ёнғин ўчириш воситалари ва уларни ишлатиш тартиби хусусида маълумотлар берилиб, эслатмалар тарқатилди.

А.ЯКУБОЕВ,
И.Каримов мажмуаси ЁХТТЭБ
мутахассиси, оддий аскар.

ДОИМИЙ ЭЪТИБОР



Навоий sanoat maydoni obyektlarida ёнғин хавфсизлигини таъминлашни ташкил этиш бўлими профилактика ва ёнғин назорати инспекторлари томонидан давлат аҳамиятига молик бўлган объектларда ўтказилган текширувлар натижасида 80 га яқин ёнғинларнинг олдини олиш ва бартараф этиш бўйича тузилган ёзма кўрсатмалар объектларнинг раҳбарларига ижро ва назорат учун тақдим этилган.

Шу билан бирга, ҳафтанинг ҳар чоршанба кунлари "Фавқулдда вазиятлар ва ёнғинлар профилактикаси" куни доирасида профилактик учрашувлар, давра суҳбатлари ҳамда ёнғиннинг олдини олишга қаратилган тарғибот ишлари ўтказилмоқда. Мамлакатимизда содир бўлган ёнғинлар ҳамда инсонларнинг ис газидан заҳарланиб, турли кўринишдаги тан жароҳатлар олиши ёки ҳалок бўлиш ҳолатлари мисоллар тариқасида баён этилиб, бу борада кенг жамоатчиликни огоҳ этиш соҳа вакилларининг кунлик ишига айланмоқда.

Тадбирлар давомида фавқулдда вазиятлар ва ёнғинларнинг олдини олишни тарғиб этувчи флаер ва буклетлар тарқатилмоқда.

Маъруфжон ҲАЙИТОВ,
НКМК ЁХТТЭМ гуруҳ бошлиғи,
катта сержант.

Ҳаётбек ХОЛИҚУЛОВ,
инспектор, катта лейтенант.

Ҳозирда коррупцияга қарши кураш халқаро миқёсдаги каби республикада ҳам долзарб муаммолардан бири ҳисобланади. Коррупцияга қарши муваффақиятли кураш тизимини барпо этишда кенг қўламли халқаро ҳамкорликни йўлга қўйиш ва хорижий мамлакатларнинг илғор тажрибасини ўрганиш, унга танқидий ёндашган ҳолда миллий қонунчилик ва амалиётга татбиқ этиш лозим, албатта.

Маълумки, коррупция ўзига тамағирликни қамраб олган ҳолда жамиятнинг маънавий устунлари ҳамда демократияни емириб, мамлакатнинг иқтисодий-ижтимоий ва сиёсий тараққий этиши учун улкан хавф туғдиради.

Этимологик жиҳатдан “коррупция” – латинча “corruptio”, яъни “бузиш, сотиб олиш, пора эвазига оғдириш” деган маъноларни англатади.

Президентимиз Ш.Мирзиёев Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тан-

ИЛЛАТГА ҚАРШИ КУРАШ

танали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги “Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини мард ва олийжаноб халқимиз билан бирга қураамиз” мавзусидаги маърузасида “Жамиятимизда коррупция, турли жиноятларни содир этиш ва бошқа ҳуқуқбузарлик ҳолатларига қарши курашиш, уларга йўл қўймаслик, жиноятга жазо, албатта, муқаррар экани тўғрисидаги қонун талабларини амалда таъминлаш бўйича қатъий чоралар кўришимиз зарур”, деб таъкидлаган эди.

Шунга кўра, республикада коррупцияга қарши курашишнинг ҳуқуқий механизми яратилган ҳолда 2017 йил 3 январда Ўзбекистон Республикасининг “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги қонуни қабул қилинди. Шундан сўнг бир қатор норматив-ҳуқуқий ҳужжатларда коррупциянинг олдини олиш ва бартараф этиш бўйича чора-тадбирлар белгиланди. Қонуннинг 3-моддасига кўра, коррупция – шахснинг ўз мансаб ёки хизмат мавқеидан шахсий

манфаатларини ёхуд ўзга шахсларнинг манфаатларини кўзлаб, моддий ёки номоддий наф олиш мақсадида қонунга хилоф равишда фойдаланиши, худди шунингдек, бундай нафни қонунга хилоф равишда тақдим этишидир.

Шундай экан, ушбу иллатга қарши мурасасиз кураш олиб бориш, бу борада масъул ва раҳбар ходимларнинг масъулиятини ошириш, жамоаларда ижтимоий-маънавий муҳитни соғломлаштириш, тарғибот-ташвиқот ишларини кучайтириш муҳим вазифалардан саналади.

Коррупцияга қарши кураш, унинг хавф туғдирадиган омилларини бартараф этиш чораларини кўриш нафақат масъул хизмат ва идораларнинг вазифаси, балки шу юртда яшаётган ҳар бир фуқаронинг виждон ишидир. Негаки, шу мустақил ва обод Ватанда яшар эканмиз, унинг тинчлиги, тараққиёти ва фаровонлиги учун барчамиз бирдек масъулмиз.

**Дониёр ЎРМОНОВ,
ФВВ МА Шахсий хавфсизлик
бошқармаси бўлим бошлиғи,
подполковник.**

УЧРАШУВ

ФВВ Академияси ҳузуридаги ФМИ ходимлари томонидан Тошкент давлат аграр университетида профессор-ўқитувчилар ва талабалар иштирокида фавқулодда вазиятлардан муҳофазаланиш тадбирлари бўйича учрашув ташкил этилди.

Унда фавқулодда вазиятлардан муҳофазаланишнинг асосий усуллари, жабрланганларга биринчи ёрдам кўрсатиш, фавқулодда вазиятлар хавфи туғилганида ва содир бўлганда огоҳлантириш

сигналларини бериш, ҳаракат қилиш тартиби, жамоавий ва шахсий ҳимоя воситаларидан фойдаланиш қоидалари тўғрисида маълумотлар берилди.

Учрашув савол-жавобларга бой тарзда ўтди.



**К.ЖУМАКУЛОВА,
ФВВ Академияси ҳузуридаги ФМИ
ўқитувчиси.**

УМУМХАЛҚ ИШИ

Хоразм вилояти ҳудудидagi бarchа идора, ташкилот, муассасаларда, аynиқса, одамлар ko'p to'planadigan maskanlar, savdo uylari, bozorlarda favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo'yicha profilaktik tadbirlar olib borilmoqda.



Aholini sel, suv toshqinlari hamda ko'chki hodisalaridan muhofaza qilish maqsadida viloyat hududidan oqib o'tuvchi Amudaryoning qirg'oq hamda dambalarini mustahkamlash, kanallarda o'zanini tozalash ishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bundan tashqari, viloyatdagi barcha ijtimoiy soha obektlarida

va ta'lim maskanlarida o'quvchi-yoshlarni jalb qilgan holda “Fuqaro muhofazasi” kunlari o'tkazilmoqda.

**S.ISKANDAROV,
Xorazm viloyati FVB bo'lim
boshlig'i, kapitan.**

**J.NAZAROV, bo'lim
xodimi, oddiy askar.**

Jizzax politexnika institutida o'quv amaliy seminar tashkil etildi.

DOLZARB MAVZUDA

Ushbu tadbirda tabiiy xususiyatli zilzila bilan bog'liq favqulodda vaziyatlar xavfi tug'ilganda aholining birlamchi harakatlarini ko'rsatib beradigan “Hayot uchun 5 daqiqa” ilmiy-ommabop film namoyish etilib, yong'in xavfsizligi qoidalariga amal qilish bo'yicha tushunchalar berildi.

O'quv mashg'ulotlari davomida “Fuqarolar uchun zilzila vaqtida tegishli harakat va tadbirlarni amalga oshirish” va “Mahalliy xomashyodan xususiy uylarni qurishda elementar seysmik mustahkamlik choralari ko'rish” nomli uslubiy qo'llanmalar ishtirokchilarga yetkazildi.

Tadbir so'nggida ishtirokchilarning savollariga javob berildi.

**H.KARIMOV, B.QOBILOV,
Jizzax viloyati FVB HFXO'M
o'qituvchilari.**

Жамиятда ҳуқуқий онг ва ҳуқуқий маданиятни шакллантириш бўйича ҳуқуқий-маърифий тадбирлар ва учрашувларни кенгайтириш, халқимиз тарихи, дини, миллий қадриятларини ёш авлод онгида шакллантириш орқали ватанпарварлик ҳиссини кучайтириш долзарб вазифалардан ҳисобланади.

ҲУҚУҚИЙ МАДАНИЯТ

Ҳуқуқий онг – одамларнинг ҳуқуқ ва қонунчиликка оид тасаввурлари, уларнинг ҳис-туйғулари, амалий тажрибалар таъсирида пайдо бўлган ҳуқуққа нисбатан муносабатини ифодалайди. Ҳуқуқий маданият эса – фуқароларнинг давлат ва ҳуқуқ ҳақидаги муҳим билимларни эгаллаб олиши, амалдаги норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар ҳақидаги тушунчаларини талқин қила олиши ҳамда улардан тўғри фойдалана олишидир.

Бугунги кунда юртимизда барча жабҳаларда туб ўзгаришлар юз бераётган масъулиятли паллада ҳуқуқий тарбиянинг барча шакл ва усулларида самарали фойдаланиш муҳим аҳамият касб этади. Шу сабабли ҳуқуқий маданиятимиз даражасига танқидий баҳо бериб, муаммоларимиз сабабини чуқур ўрганишимиз керак.

Ҳозирда “Жамиятда ҳуқуқий маданиятни юксалтириш” концепцияси асосида “шахс - оила - маҳалла - таълим муассасаси - ташкилот - жамият” принципи бўйича тизимли ва узвий ишларнинг ташкил этилиши белгиланган ва айни йўналишда бир қатор маънавий-маърифий тадбирлар амалга ошириб келинмоқда.

Ушбу тадбирлардан кўзланган мақсад – ёш авлод, умуман олганда, юртимизда яшаётган фуқароларнинг ҳуқуқий маданиятини оширишдир. Албатта, бу борадаги тадбирларда барчамиз фаол бўлишимиз, юртимизда амалга оширилаётган оқилона ислохотларга муносиб ҳисса қўшишимиз лозим.

**Насиба ЗОКИРОВА,
Зангиота тумани ИИБ терговчиси,
майор.**

YONG'INGA QARSHI SUV TA'MINOTI

Hududi 5 gektardan iborat bo'lgan “Dengizko'l” siquv compressor stansiyasi Buxoro viloyati Olot tumanida joylashgan. Muborak neft-gaz qazib chiqarish boshqarmasi O'rtabuloq Dengizko'l neft-gaz konlari majmuasiga qarashli ushbu stansiyada 2 ta hajmi 500 metr kubli yopiq suv havzasi mavjud. Shuningdek, ular 14 ta yong'in o'chirish gidranti, 13 ta lafet hamda 4 ta lafet dastaklari va SOGDA ekrani bilan ta'minlangan.

Stansiya suvni O'rtabuloq suv taqsimlash inshootidan oladi. Barcha suv ta'minoti tizimi yong'inga qarshi nasoslar orqali doimiy bir me'yorda kerakli bosim ostida suv bilan ta'minlanadi. Yong'in o'chirish suv ta'minotining asosiy maqsadi belgilangan miqdorda, zarur bo'lgan bosim ostida va me'yoriy o'rnatilgan vaqt oralig'ida yong'in o'chirish uchun suvni ishonchli tarzda yetkazib berish hisoblanadi. Yong'inga qarshi suv ta'minoti belgilangan reja asosida 22-yong'in-qutqaruv qismi va mas'ul xodimlar tomonidan tekshirib boriladi.

Doimiy tasdiqlangan reja asosida o'quv amaliy-taktik mashq va mashg'ulotlar o'tkazilib boriladi. Yong'inga qarshi suv ta'minoti tizimi O'zbekiston Respublikasi Qurilish vazirligining norma talablari asosida doimiy nazoratdan o'tkazilib, sozligi ta'minlanmoqda.

**Mirshod MUSTAFOYEV,
Buxoro viloyati FVB Muborak NGQCHB
OBYOXTTEB 21-YQQ smena boshlig'i,
leytenant.**

SANAGA BAG'ISHLANDI

Samarqand viloyati FVB tomonidan Amir Temur tavalludining 687 yilligiga bag'ishlab munosabati bilan o'quv-seminari tashkil etildi.

Mazkur tadbir davomida Sohibqiron Amir Temur o'z zamonasining eng kuchli hamda jangovar lashkarini tashkil qilishga muvaffaq bo'lgani, bobokolonimizning tuzgan qo'shini o'sha vaqtdagi eng ilg'or armiya sifatida tan olingani, keyinchalik ham buyuk sarkardalar, harbiy mutaxassislar tomonidan e'tirof etilgani, bir necha asrlar mobaynida ibrat va andoza va-

zifasini o'tagani hamda harbiy san'at tarixi sifatida keng ko'lamda o'rganilgani qayd etildi.

Tadbir yakunida ishtirokchilar Samarqand shahridagi Amir Temur maqbarasini ziyorat qildilar.

Ilhom BOQIYEV,
Samarqand viloyati FVB
axborot xizmati boshlig'i,
katta leytenant.



УЛУҒ АДИБГА ЭҲТИРОМ

Улуғ адиб, ўзбек романчилигининг асосчиси Абдулла Қодирий таваллудининг 129 йиллиги кенг нишонланмоқда. Шу муносабат билан "Китобхонлик ойлиги" доирасида Миробод тумани 154-мактабнинг 7–8-синфларининг бир гуруҳ китобхон ва ижодкор ўқувчилари мактабнинг маънавий-маърифий ишлар бўйича тарғиботчиси Зикрилла Неъмат ҳамда она тили ва адабиёт фани ўқитувчиси Шаҳноза Шермуродова билан биргаликда адибнинг Самарқанд дарвозаси кўчасида жойлашган уй-музейга ташриф буюришди.

Улар бу ерда Абдулла Қодирий яшаган ёзги айвон ва икки қаватли уй ҳамда адиб номидаги кутубхона-ни кўздан кечиришди. Улуғ ўзбек шоир-ёзувчилари ва таниқли жаҳон адибларининг Абдулла Қодирий ҳақидаги фикрлари билан танишишди. Адибнинг "Улоқда", "Бахтсиз куёв", "Ўтган кунлар", "Меҳробдан чаён", "Обид кетмон" каби асарларининг ёзилиш тарихи ҳақидаги маълумотларга эга бўлишди.

Улуғ адибнинг набираси Хондамир



Қодирий билан суҳбатлашишди. "Отам ўз оталари ҳақида кўп гапирмасдилар, фақат ёзардилар, биз бобом ҳақида у кишининг "Отам ҳақида" номли китоблари орқали билганмиз" – деди Хондамир ака.

Шу кунги ўқувчилар академик Ғафур Ғулум уй музейи ва Адиблар хиёбони ҳам боришди. Ташриф давомида ўқувчилар буюк адибларимизнинг яшаб, ижод қилган уйлари, хоналари, улар фойдаланган жиҳозлар, қўл-ёзмаларини кўриб, маълумотларни

тинглаб, бир он бўлса-да, ўша давр нафасини ҳис этишди. Адиблар хиёбонидаги улуғ шоир ва ёзувчиларнинг ҳайкаллари ва Ёзувчилар уюшмаси биноси билан танишдилар.

Ўқувчиларга саёҳат таассуротларини эссе ёки иншо ёзиш орқали ифодалаш уй вазифаси қилиб белгиланди.

Шабнам ИЗЗАТИЛЛАЕВА,
Миробод туманидаги
154-умумтаълим мактаби
8-синф ўқувчиси.

ЮРТИМ ХАЛОСКОРЛАРИ



Туну кун хизматда камарбастадир,
Пойида тилсиз ёв ожиз, хастадир,
Меҳру муҳаббати оламга татир,
Юртимнинг жасур, мард халоскорлари...

Ҳар қандай офатга кўкси қалқондир,
Тўсиқлар янчилиб, мисли талқондир,
Кўмакка шай, тайёр марди майдондир,
Юртимнинг жасур, мард халоскорлари...

Гавҳардек асрайдди она элини,
Эзгулик чулғанган онгу дилини,
Очиқ айла, ўзинг, мудом йўлини,
Юртимнинг жасур, мард халоскорларин...

Лочиндайин учқур, енгилмас шунқор,
Сиз билан Ватаним гуллар барқарор,
Мудом омад бўлсин барчангизга ёр,
Юртимнинг жасур, мард халоскорлари...

Музаффар ИШМУҲАМЕДОВ,
Чилонзор тумани ФВ бўлими
14-ЁҚҚ инструктор-қутқарувчиси,
кичик сержант.

ҚУТҚАРУВЧИ БЎЛАМАН!



Жасоратли акам бор,
Тун-кун хизматда бедор.
Қутқарар инсонларни,
Асраб қолар жонларни.
Куч-қувватга тўламан,
Мен ҳам шундай бўламан.
Барчага бериб ёрдам,
Хизмат қиламан бардам.

Амирхон МИРКОМИЛОВ,
Янгиҳаёт туманидаги
330-умумтаълим мактаби
3-синф ўқувчиси.

КЎРКАМ БАҲОР



Баҳор, бунча яхшисан,
Фаслларнинг нақшисан.
Гуллатасан оламни,
Қувнатасан одамни.
Лола турар ловиллаб,
Анҳор оқар шовиллаб.
Ариқларда ўғил-қиз,
Териб юришар ялпиз.
Булутлар чўзиқ-чўзиқ,
Ҳаво авзойи бузук.
Ҳой, дўстим, эҳтиёт бўл,
Ҳозир ёғиб қолар дўл!

Эъзога ИМОМНАЗАРОВА,
Сергели туманидаги
264-умумтаълим мактаби
5-"В"-синф ўқувчиси.



ШЕЪР ЁЗАМАН

Шеър ёзаман қўлимда қалам,
Бунча гўзал бўлмаса олам.
Орзуларга кўмиб дилимни,
Мадҳ этаман она элимни.
Шеърларимни ўқиган инсон,
Бўлсин мендан доим шодумон.
Бориб эзгуликнинг йўлидан,
Тутиб шижоатнинг қўлидан.
Хизмат қилгум она-Ватанга,
Айлантиргум обод чаманга!

Муслима РИХСИХЎЖАЕВА,
Сергели туманидаги
264-умумтаълим мактаби
5-"В"-синф ўқувчиси.



Vaziyat

газетаси

Муассис:
Ўзбекистон
Республикаси
Фавқуллода
вазирлар
вазирлиги

Бош муҳаррир в.б.
Азамат СУЮНОВ

Газета таҳририят
компьютерхонасида
саҳифаланди.

Газета ҳар ҳафтанинг
пайшанба куни чиқади.
Топшириш вақти — 15:00.
Топширилди — 15:00.

Навбатчи:
Б.ВАЛИЕВ

Таҳририятга юборилган
материаллар қайтарилмайди ва
изоҳ берилмайди.
Муаллифлар фикри таҳририят
нуқтаи назаридан фарқланиши
мумкин.

Газетадан олинган
материаллар манбаси
кўрсатилиши шарт.

Газета Ўзбекистон
Матбуот ва ахборот
агентлигида 2007 йил
3 январда 0096-рақам
билан рўйхатга олинган.
ISSN 2091-5292

Таҳририят манзили:
100084, Тошкент шаҳри,
Кичик ҳалқа йўли, 4-уй.
Тел.: (71) 231-96-71
Телеграмм: (90) 016-87-67

Индекс:
якка обуначилар ва
ташкilotлар учун — 382

Газета
"BUSINESS PRINT DESIGN"
босмахонасида босилди.
Манзил: Тошкент шаҳри,
Сўғалли ота кўчаси, 5-уй.
Буюртма №
Бичими: А3, ҳажми: 2,0 б.т
Адади — 6750 нуска